



**Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna,**  
*Qo'qon universiteti dotsenti,*  
*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*  
*e-mail: [nar.kokand@gmail.com](mailto:nar.kokand@gmail.com)*

## MILLIY MAROSIMLARNI TASHKILLASH MASALALARI TARIXIGA NAZAR

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.460>

**Annotatsiya.** O'zbek to'ylarining sadosi olis-olislardan eshitiladi, o'ziga xos tarzda o'tadi. Bugungi kunda respublikada jamoatchilikning marosimlar masalasi bo'yicha fikrining ikkiga bo'linishi kuzatilmoqda. Maqolada milliy marosimlarni tashkillaş masalalari tarixiga nazar tashlanib, o'tgan asrda mazkur masalada jamoatchilik tomonidan olib borilgan targ'ibotlar haqida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** marosim, to'y, aza, xarajat, targ'ibot, qarshilik, jamiyat, nikoh.

**Аннотация.** Звуки узбекских свадеб слышны издалека, они проходят особым образом. В настоящее время в республике наблюдается раскол общественного мнения по вопросу обрядов. В статье рассматривается история организации национальных обрядов и освещается пропаганда, проводимая общественностью по этому вопросу в прошлом веке.

**Ключевые слова:** обряд, свадьба, траур, расходы, пропаганда, сопротивление, общество, брак.

**Annotation.** The sounds of Uzbek weddings can be heard from afar, they are held in a special way. Currently, there is a split in public opinion regarding the issue of rituals in the republic. The article examines the history of organizing national rituals and highlights the public's advocacy on this matter in the last century.

**Keywords:** ritual, wedding, mourning, expenses, propaganda, resistance, society, marriage.

**Kirish.** O'zbek milliy qadriyatlarida Koila va nikoh muqaddas sanaladi. Shu bois, ham to'ylarga alohida e'tibor bilan qaraladi. Yurtimizda azal-azaldan farzand tug'ilishi bilan turli marosimlar o'tkaziladi. O'zbek to'ylari qadimdan xalqni ma'naviy-ruhiy tomondan tarbiyalovchi vosita bo'lib kelgan.

Doimiy muhokamalarga sabab bo'lgan davrimizning to'ylarini rejali va tejankor o'tkazilyapti deya olmaymiz. Ikki asr avvalgi to'ylar haqidagi ma'lumotlarda keltirilishicha, aholi xoh boy, xoh kambag'al bo'lsin, doim dabdabali to'y qilishga harakat qilgan.

2024–2025-yillar davomida to'y va ma'rakalardagi ortiqcha sarf-xarajatlar davriy matbuot sahifalarida muntazam ravishda ko'tarilib, qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Ushbu masalalar muhokamasida jamiyatning fikri deyarli ikkiga bo'linib, bir qismi sarf-xarajatlarni cheklash tarafdorlari, boshqa qismi esa ularni cheklamaslik tarafdorlari bo'ldi. Ayniqsa 2020-yildagi karantin vaqtida ruxsat etilgan 30 kishilik to'ylar ham qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi<sup>1</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** Muallif o'z tadqiqotida, asosan, XX asrning boshlari va ikkinchi

<sup>1</sup> <https://kun.uz/kr/38302514>

yarmida mamlakatdagi to‘y-marosimlarning tashkillanish jarayoniga ahamiyat qaratdi. Biroq mazkur mavzu bo‘yicha alohida tadqiqot deyarli olib borilmagan. Shu sababli muallif o‘z izlanishlarida arxiv hujjatlari, og‘zaki tarix intervyulari, davriy nashr materiallaridan foydalandi.

2020-yilda “Mening fikrim” jamoaviy murojaatlar portalida to‘y marosimlarini 30 nafar ishtirokchi bilan o‘tkazish tartibini doimiy saqlab qolish masalasiga oid jamoaviy murojaat joylashtirildi. Mazkur murojaatnoma bilan tanishgan aholining qariyb 90 foizi ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, atigi 10 foiz fuqaro unga qarshi fikr bildirgan. Biroq mazkur masalaga ijtimoiy-tarixiy nuqtayi nazardan yondashilganda, bunday qat‘iy cheklovlarni joriy etish har doim ham maqsadga muvofiq bo‘lmagani ko‘zga tashlanadi. To‘y-hasham va boshqa oilaviy marosimlarni muayyan qaror yoki qonun hujjatlari bilan cheklashdan ko‘ra, jamiyatda shaxsiy ibrat, targ‘ibot va tushuntirish ishlari orqali tartibga solish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Keyingi bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrdagi qarori bilan “Oqilona iste‘mol” dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Mazkur dasturga muvofiq to‘ylar, oilaviy tantanalar va marosimlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashi hamda Senat Kengashining qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida o‘tkazilishi belgilandi. Ushbu Nizomda oilaviy tadbirlarda 200 nafargacha, shu munosabat bilan beriladigan osh marosimlarida esa 250 nafargacha ishtirokchining qatnashishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, qo‘shaloq to‘y va hashar marosimlarida 250 nafargacha, ularga bog‘liq osh tadbirlarida esa 300 nafargacha mehmon ishtirok etishiga ruxsat berilgan.

### **Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.**

Ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo‘lgan ushbu “olamshumul” masala yuzasidan aholining fikri ikki qarama-qarshi tomonga bo‘lindi. Bir guruh fuqarolar ijtimoiy ahvolning yomonlashuviga sabab bo‘layotgan ayrim urf-odatlarining qisqartirilayotganini ijobiy holat sifatida baholagan bo‘lsa, boshqa bir guruh vakillari o‘z imkoniyati va xohishidan kelib chiqib sarflanayotgan mablag‘larning cheklanayotganidan norozilik bildirdi.

O‘tgan asrda ham jamiyatning taraqqiyparvar kuchlari tomonidan xalqimiz hayotida uchraydigan isrofgarchilik illatlari tanqid qilingan bo‘lib, qarzga botish, bor-budidan ajralish holatlarining ko‘payotgani, mavjud mablag‘larni marosimlarga sarflash esa xalqning kelajagini xavf ostiga qo‘yishi mumkinligi ta‘kidlangan.

To‘y va ma‘rakalarni atrofdagi oilalardan ko‘ra dabdabaliroq o‘tkazishga intilib, buning uchun yemay-ichmay mablag‘ jamg‘arayotgan jamiyat holati XX asr boshlaridayoq jadid mutafakkirlarining keskin tanqidiga uchragan. Jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy ayrim kishilar to‘y marosimlari oqibatida moliyaviy tanazzulga uchrab, xonavayron bo‘layotganini qayd etadi. U o‘z asarlarida musulmon jamiyatida to‘ylar bahonasida haddan tashqari mablag‘ sarflanishini tanqid qilib, boshqa millat vakillarida bunday holatlar deyarli uchramasligini ta‘kidlaydi. Behbudiyning fikricha, katta mablag‘lar ko‘pincha qarz evaziga sarflanib, bu nafaqat iqtisodiy isrof, balki ijtimoiy va ma‘naviy mas‘uliyatsizlikka ham olib kelgan.

Mutafakkir isrofli marosimlarga qarshi chiqib, Turkistonda faoliyat yuritgan rus, arman va yahudiy ishbilarmonlarining tajribasini ijobiy misol sifatida keltiradi. Ularning to‘y va aza marosimlarini kamxarj o‘tkazib, jamg‘arilgan mablag‘larni maktab va madrasalar qurish, ta‘lim muassasalarini rivojlantirishga yo‘naltirayotganini alohida ta‘kidlaydi. Behbudiy Turkiston aholisini ham dabdabali marosimlarga berilib ketmasdan, o‘z mablag‘larini ta‘lim va ma‘rifat yo‘liga sarflashga, yoshlarni zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishi uchun xorijiy ilm markazlariga yuborishga da‘vat etgan.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili Abdurauf Fitrat ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratib, “Najot yo‘li” asarida isrofgarchilikni jamiyatlar inqirozining muhim sabablaridan biri sifatida baholaydi. XX asr boshlarida oilaviy marosimlarda haddan tashqari dabdaba, ko‘z-ko‘z qilishga asoslangan to‘y va aza marosimlarining keng tarqalishi ijtimoiy hayotda salbiy oqibatlarni kuchaytirgan<sup>2</sup>.

Ayniqsa, to‘ylarda shirinlik va chopon tarqatish, bir necha xil taom tayyorlash, uloq-ko‘pkari kabi tomoshalarni uyushtirish, shuningdek, aza marosimlarida uch, yetti, yigirma, qirq kunlik hamda

<sup>2</sup> <https://oyina.uz/uz/article/3432>

yil oshi kabi marosimlarni ketma-ket o'tkazish odat tusiga kirib, aholining iqtisodiy ahvoriga jiddiy bosim o'tkazgan.

Manbalarda qayd etilishicha, mazkur davrda kambag'al qatlam vakillari to'y marosimlarini o'tkazish uchun o'rtacha 200 rubldan 1000 rublgacha mablag' sarflagan. Badavlat oilalarda esa to'y xarajatlari 5000 rubldan 10 000 rublgacha yetgani kuzatilgan. Bu ko'rsatkichlar o'z davri uchun nihoyatda katta moliyaviy yuk bo'lib, aholining iqtisodiy imkoniyatlaridan ancha yuqori darajada bo'lgan. Solishtirma ma'lumotlarga ko'ra, o'sha yillarda bir bosh qo'ying o'rtacha narxi 2,5–3 rubl (12,5–15 tanga) atrofida bo'lgan. Ayniqsa, may oyi – chorva eng qimmatlashgan davrda ikki yoshli qo'ylar narxi 7 rublgacha (35 tanga) yetgan. Shu bilan birga, bir botmon bug'doy 1,5–2 rubl oralig'ida baholangan.

Matbuot sahifalarida mazkur muammolarga oid tanqidiy fikrlarning muntazam yoritilishi bejiz emas edi. Gazeta va jurnallarni mutolaa qilgan aholining muayyan qismi jamoatchilik muhokamasi orqali isrofgarchilikka barham berilishi, marosimlarda me'yor va tejamkorlik qaror topishiga umid bildirgan.

1917-yil Fevral inqilobidan so'ng Turkiston o'lkasida faoliyat yuritgan taraqqiyparvar kuchlar, xususan, "Sho'royi Islomiya" tashkiloti tomonidan to'y va ma'rakalarni tartibga solishga qaratilgan tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, 1917-yil aprel oyida mazkur masalaga bag'ishlangan qarornoma e'lon qilindi. "Sho'royi Islomiya"ning 1917-yil 22-apreldagi umumiy yig'ilishida to'y va marosimlarni isrofgarchiliksiz o'tkazish bo'yicha amaliy choralarni ishlab chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Ushbu komissiya tarkibiga Said Ahrorxon Mahsum, Murodxo'ja Eshon, Hamidxo'ja Eshon hamda Abdulsamig' Qori kiritildi. Komissiya a'zolari zimmasiga to'y va ma'rakalarni haddan tashqari dabdabasiz, me'yor va iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqib o'tkazish tartiblarini keng jamoatchilikka yetkazish vazifasi yuklatildi<sup>3</sup>.

Hoji Muin o'zining "To'y-ta'ziya isroflari" nomli maqolasida Turkiston jamiyatida keng tarqalgan isrofgarchilik illatlariga alohida e'tibor

<sup>3</sup> Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40–80-yillarida Farg'ona vodiysi o'qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari // [Vol. 2 No. 16 \(2023\): Educational Research in Universal Sciences \(ERUS\) https://fitrat.uz/archives/5124](https://fitrat.uz/archives/5124);

qaratib, ularni cheklash masalasini dolzarb ijtimoiy muammo sifatida ko'rsatadi. Muallifning ta'kidlashicha, mazkur illatlarga qarshi kurash faqat ma'muriy choralardan bilangina emas, balki uzluksiz va tizimli targ'ibot ishlari orqali amalga oshirilishi lozim. U xalqni o'z holiga tashlab qo'yish salbiy oqibatlariga olib kelishini qayd etib, quyidagicha fikr bildiradi: jamiyat o'z manfaat va zararini yetarli darajada anglamagan holda asrlar davomida shakllangan, biroq foydasiz urf-odatlar ta'siridan chiqib keta olmaydi. Shu bois, mas'ul shaxslar hamda ziyoli yoshlar marosimlardagi isrofgarchilikni bartaraf etishda xalqqa yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi va yetakchi bo'lib turishlari zarur.

Hoji Muin mazkur masalaga nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yondashgan. U 1914–1924-yillar davomida, ya'ni qariyb o'n yil mobaynida matbuot sahifalarida to'y va ta'ziya marosimlaridagi ortiqcha dabdaba va isrofgarchilikni muntazam tanqid qilib kelgan. Bundan tashqari, u "To'y" nomli dramatik asar yozib, uni sahnalashtirish orqali jamiyat e'tiborini ushbu muammoga qaratishga harakat qilgan. Mazkur sahna asari 1915-yil 21–24-yanvar kunlari Toshkent va Namangan shaharlaridagi ko'ngilli teatr jamoalari tomonidan namoyish etilgan bo'lib, u o'z davrida keng jamoatchilik orasida muayyan ijtimoiy rezonans uyg'otgan.

Bu kabi masalalar XX asrning 70-yillarida ham ko'tarilgan. Qizil to'ylar o'tkazish, to'y marosimlarini kamchiqim qilib o'tkazish masalasi partiya yig'ilishlarida ko'rib chiqildi. 1970-yilda Namangan oblast partiya komiteti ideologiya bo'limi tashkil etgan "Namangan oblastida o'tkazilayotgan to'y va boshqa marosimlar to'g'risidagi materiallarni o'rganish bo'yicha" tuzilgan komissiya safiga partiya-sovet, komsomol va jamoatchilik tashkilotlarining vakillaridan 64 kishi qatnashgan. Namangan shahridan savdo xodimi, nafaqaxo'r, savdo xodim rahbarlari, korxonalar ishlab chiqarish rahbar xodimlaridan biri, o'qituvchi, tibbiyot va ovqatlanish muassasasi xodimlarining to'ylari tanlab olingan. Xuddi shunday Namangan va Yangiqo'rg'on rayonida ham turli tabaqa fuqarolari o'tkazayotgan marosimlarning xarajatlari surishtirilgan. To'y xarajatlarini surishtirishda turli qarshiliklarga duch kelinishiga, xarajatlarni kamaytirib aytishga va yolg'on ma'lumot berishga urinishlar bo'lishiga qaramay, komissiya ishidan

xabardor bo‘lgan aholining barchasi bu tashabbusdan xursand bo‘lgan. Ya’ni kamchiqim to‘ylar barcha uchun kerakli ekanligi, ortiqcha tejalgan mablag‘ yosh oilaning hayotini yo‘lga qo‘yishga sarflanishi lozimligi ta’kidlangan<sup>4</sup>.

Namangan shahridagi oddiy o‘qituvchi va ishchi qizning nikoh to‘yiga 1102 so‘m, shifokor yigit 2561 so‘m, taksist yigit 2301 so‘m, o‘qituvchi ayol qiz uzatilishiga 1460 so‘m, shofyor 3203 so‘m, kolxoz ishchisi 2296 so‘m, kolxozchi 2303 so‘m sarflagan. Ammo shu bilan birga, to‘y uchun katta mablag‘ sarflagan fuqarolar ham talaygina<sup>5</sup> bo‘lgan.

Yangiqo‘rg‘on rayonida to‘ylar boshlanishidan tamom bo‘lgunicha 11 xil marosim o‘tganligi qayd etildi.

1. 1-sovchilikka borish – 51 so‘m.
  2. 2-sovchilikka borish – 70 so‘m.
  3. 3-sovchilikka borish, rozilik olish – 228 so‘m.
  4. Bayram va hayitlarda yo‘qlash – 105 so‘m.
  5. Uy ko‘rdi (yigitnikiga) – 90 so‘m.
  6. Yuk berdi (qiznikida o‘tadi) – 996 so‘m.
  7. Ro‘zg‘or buyumlari uchun – 1290 so‘m.
  8. FHDYodan o‘tishda sarflanadigan mablag‘ – 75 so‘m.
  9. To‘y kuni chiqimlari – 570 so‘m.
  10. Rukshonga keladiganlarni kutib olish – 155 so‘m.
  11. 1-chorladiga borish uchun – 100 so‘m.
- Jami: 5075 so‘m<sup>6</sup>.

Bu summa rayonda o‘tkazilgan to‘ylarning o‘rtacha ko‘rsatkichi bo‘lib, oddiy to‘yga ham 5000-6000 so‘m sarflangan.

Komissiya a‘zolari tomonidan turli nomlar bilan atalgan “o‘g‘il to‘yi”, “sunnat to‘yi”, yubileylar va aza marosimlarida – 1 kun xalqqa osh, 1-kun xotinlarga, 1-kun – azadorlarga bo‘lib, marosim bir haftagacha cho‘zilib ketgani aniqlangan.

Olib borilgan surishtiruv ishlarining tahlili va muhokamalari natijasida to‘y marosimlarini quyidagi yangicha shaklda o‘tkazish taklif qilindi: yigitlar harbiy xizmatga borib kelib, qo‘lidan ish keladigan bo‘lib, oila boqishga tayyor bo‘lgandagina, o‘zaro kelishib to‘y qilish. Xuddi shunday, qiz bola ham,

<sup>4</sup> Namangan viloyati davlat arxivi, 505-fond, 1-ro‘yxat, 87-ish, 49-varaq.

<sup>5</sup> Namangan viloyati davlat arxivi, 796- fond, 1-ro‘yxat, 97-ish, 102-varaq.

<sup>6</sup> Namangan viloyati davlat arxivi, 505- fond, 1-ro‘yxat, 88- ish, 69-varaq.

maktabni bitirib, oila ishlarini bemalol eplaydigan darajada bo‘lsa va sog‘lom bo‘lsagina, keyin turmushga berish<sup>7</sup>.

Komissiyaning fikricha, yigit tomondan to‘y o‘tkazish uchun beriladigan xarajatlar quyidagicha o‘lchovda bo‘lgani ma’qul:

1. Qo‘y – 120 so‘m.
  2. Ikki qop un – 40 so‘m.
  3. 40 kg guruch – 40 so‘m.
  4. 10 kg yog‘ – 15 so‘m.
  5. Sabzavotlar, meva va shirinliklar – 50 so‘m.
- Qiz uchun kiyimliklar*
6. 1 atlas – 30 so‘m.
  7. 2 ta grim ko‘ylak – 50 so‘m.
  8. Kiyim parang – 30 so‘m.
  9. 1 ta shtapel – 6 so‘m.
  10. 1 ta ko‘ylak uchun material – 20 so‘m.

Umumiy qilib aytganda, kiyim-kechaklar va to‘y xarajatlarini qo‘shib hisoblaganda jami 1566 so‘m sarflash taklif qilindi. Shuningdek, to‘y-ma’rakalarni o‘tkazib beradigan byurolar tashkil etish taklif qilinadi. ZAGS byurolari yaqinida kelin-kuyovlar uchun magazinlar tashkil etish, to‘ylarga xizmat qilish uchun idish va stol-stullarni ijaraga berish ham tashkil etilishi taklif etildi<sup>8</sup>.

Bu kabi tashabbuslar aholining to‘y-ma’rakalar haqidagi fikrlariga qaramay, bu an’ana doimiy ravishda davom etib keldi, ya’ni aholining ortiqcha sarf-xarajatlar haqidagi shaxsiy fikrlariga qaramay, kamchiqim to‘ylar amalga oshmadi.

Aslida serchiqim to‘y qilishga undovchi ayollarni oiladagi erkaklar jilovlab turmog‘i lozim. Muqaddas Qur’oni Karimning “Niso” surasining 34-oyatida shunday deyiladi: “Erkaklar xotinlar ustidan (oilal boshlig‘i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba’zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o‘z oilasiga) o‘z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solihalari – bu (Allohga va eriga) itoatli, g‘oyibga Alloh saqlaganicha himoyatli (ya’ni erlarining sirlari, mulklari va obro‘larini saqlovchi) lardir.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda ham, XXI asr boshida ham millatning eng quvonchli kunlaridan biri

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident administratsiyasi arxivi Jizzax viloyati bo‘limi, 145-fond, 6-ro‘yxat, 30-ish, 19-varaq

<sup>8</sup> Andijon viloyati davlat arxivi, 614-fond, 1-ro‘yxat, 17-ish, 38-varaq

bo‘lmish to‘y marosimlari hamisha oilaning boshiga iqtisodiy taqchillik keltirgan. Jamiyat hayotining qaysi davri bo‘lmasin, ma’rifatparvarlarning tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular sog‘lom nazar bilan qarash, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga qaratilgan. To‘y-marosimlarni o‘tkazishda kimo‘zar musobaqasi o‘tkazmay, balki mablag‘larni behuda sarflamaslik, ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilsa,

maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Fuqarolarimiz bir kunlik to‘y uchun yillar davomida yemay-ichmay pul yig‘ishi, chet ellarda ishlashi, farzandlarining o‘qishi uchun pul sarflashga og‘rinishi, oqibatda tarbiyaga ham yetarlicha e’tibor berilmasligi bugungi kunimizning dolzarb muammosiga aylanib qoldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40–80-yillarida Farg‘ona vodiysi o‘qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari / [Vol. 2 No. 16 \(2023\): Educational Research in Universal Sciences \(ERUS\)](#).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi arxivi Jizzax viloyati bo‘limi, 145-fond, 6-ro‘yxat, 30-ish, 19-varaq.
3. Andijon viloyati davlat arxivi, 614-fond, 1-ro‘yxat, 17-ish, 38-varaq.
4. Namangan viloyati davlat arxivi, 505-fond, 1-ro‘yxat, 87-ish, 49-varaq.
5. Namangan viloyati davlat arxivi, 505- fond, 1- ro‘yxat, 88- ish, 69- varaq.
6. Namangan viloyati davlat arxivi, 796- fond, 1- ro‘yxat, 97- ish, 102- varaq.
7. <https://kun.uz/kr/38302514>
8. <https://oyina.uz/uz/article/3432>
9. <https://fitrat.uz/archives/5124>